

JURAYEVA NAFISA MIRDJAXPAROVA
Yangiyo‘l shahar prokurorining katta yordamchisi
Tel: 94-642-12-94

**QONUNGA XILOF RAVISHDA CHET ELGA CHIQISH YOKI O‘ZBEKISTON
RESUPBLIKASIGA KIRISH JINOYATINI JINOIY JAVOBGARLIGINI
TAKOMILASHTIRISH**

Annotatsiya: Mazkur maqolada qonunga xilof ravishda chet elga chiqish yoki O‘zbekiston Respublikasiga kirish uchun belgilangan jinoiy javobgarlikning umumiy tavsifi, mazkur qilmishning ijtimoiy xavfliligi, mazkur qilmish bevosita boshqa normativhuquqiy hujjatlar bilan bog‘liq ekanligidan kelib chiqib, shu bilan bog‘liq amaldagi qonunchilik hujjatlarining huquqiy tahlili keltirilgan.

Kalit so‘zlar: chegara xavfsizligi, O‘zbekiston Respublikasiga kirish, jinoyat, chet elga chiqish, davlat chegarasi, jinoiy javobgarlik.

Аннотация: В данной статье дается общая характеристика уголовной ответственности, установленной за незаконный выезд за границу или въезд в Республику Узбекистан, социальная опасность данного деяния, правовой анализ действующих в связи с этим законодательных актов, исходя из того, что данное деяние непосредственно связано с другими нормативными правовыми актами.

Ключевые слова: пограничная безопасность, въезд в Республику Узбекистан, преступление, выезд за границу, государственная граница, уголовная ответственность.

Annotation: This article presents a general description of the criminal liability established for illegal foreign entry or entry into the Republic of Uzbekistan, the social danger of this act, the legal analysis of the current legislative acts related to this, based on the fact that this act is directly related to other normative acts.

Keywords: border security, entry into the Republic of Uzbekistan, crime, exit abroad, state border, criminal liability.

Umuman olganda jahonda migratsiya jarayonlarining kuchayishi va davlat chegaralarini g‘ayriqonuniy kesib o‘tishning bog‘liqligi, qonunga xilof ravishda chet elga chiqish yoki davlat hududiga kirish bilan bog‘liq jarayonlarni tartibga solish, uning uchun javobgarlik belgilangan jinoyat qonuni normalarni takomillashtirish, mazkur jinoyatlarning oldini olish, ushbu qilmishga qarshi kurashishda davlatlarning hamkorligiga alohida e‘tibor berilmoqda. Bugungi kunda dunyo miqyosida sodir bo‘layotgan turli geosiyosiy voqealilar, davlatlarning o‘zaro hamkorliklari, integratsiyalashuv, ishchi kuchiga bo‘lgan talab, iqlim o‘zgarishlari, iqtisodiy vaziyat yoki katta-kichik urushlar va boshqa turli jabhalardagi voqea-hodisalar tufayli dunyo aholisi o‘zlarining yashab turgan bir joyidan boshqa joyga ixtiyoriy yoki majburiy ko‘chmoqdalar. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 28-moddasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi O‘zbekiston Respublikasiga erkin kelish va undan chiqib ketish huquqiga ega bo‘lib, qonunda belgilangan cheklashlar bundan mustasno.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 223-moddasida nazarda tutilgan jinoiy javobgarlik shaxs chet elga chiqish yoki O‘zbekiston Respublikasiga kirish yoxud O‘zbekiston

Respublikasining Davlat chegarasini kesib o'tish yuzasidan belgilangan tartibni faqat qasddan buzgan hollardagina kelib chiqadi.

Shaxs tomonidan O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasini kesib o'tish tartibining ehtiyotsizlik oqibatida (masalan, oriyentirni yo'qotish oqibatida), noilojlikdan (masalan, tabiiy ofat yoki texnogen xususiyatga ega hodisa, zo'rlik ishlatish yoki zo'rlik ishlatish bilan tahdid etish oqibatida) yoki shaxsning erkiga bog'liq bo'lmagan hollarda (masalan, uning o'z ahvoldaligidan foydalangan holda) buzilishi mazkur jinoyat tarkibini tashkil etmaydi.

Siyosiy boshpana huquqidan foydalanish uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat chegarasini kesib o'tish tartibini buzgan holda O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar JK 223-moddasi bilan jinoiy javobgarlikka tortilmaydilar.

Qonunga xilof ravishda chet elga chiqish, qonunga xilof ravishda O'zbekiston Respublikasiga kirish deganda, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Davlat chegarasining belgilangan o'tkazish punktlari orqali, biroq belgilangan hujjatsiz yoki O'zbekiston Respublikasining vakolatli davlat organlari tomonidan beriladigan tegishli ruxsatnomasiz kesib o'tilishi tushuniladi.

Qonunga xilof ravishda O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasidan o'tish deganda, jumladan, haqiqiy hujjatlar va kirish-chiqishga ruxsatnoma bor-yo'qligidan qat'iy nazar, uning belgilangan o'tkazish punktlaridan tashqari joydan kesib o'tilishi tushuniladi. O'zbekiston Respublikasiga kirish, chiqish va davlat chegaralaridan o'tish davomida mazkur qonun hujjatlarida belgilangan tartibni buzish O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 223-moddasida nazarda tutilgan (Qonunga xilof ravishda chet elga chiqish yoki O'zbekiston Respublikasiga kirish) jinoyat tarkibini yuzaga keltiradi. Albatta, bunday holatda shaxsning qilmishiga to'g'ri baho berish, uning sodir etgan qilmishi tufayli zarar yetkazilgan yoki shunday zarar yetkazishning real xavfi yuzaga kelgan ijtimoiy munosabatlar doirasini aniqlash, boshqacha aytganda, qilmishni to'g'ri kvalifikatsiya qilish muhim ahamiyatga egadir. Jinoyat huquqida qilmishni to'g'ri kvalifikatsiya qilishda esa, har qanday jinoyatning, avvalo, mohiyatini, tushunchasini to'g'ri anglab olish, uning ijtimoiy xavflilik darajasini baholash talab etiladi. Bevosita Jinoyat kodeksining 223-moddasi dispozitsiyasiga to'xtaladigan bo'lsak, moddaning birinchi qismi dispozitsiyasida belgilangan tartibni buzib chet elga chiqish yoki O'zbekiston Respublikasiga kirish yoxud chegaradan o'tish uchun javobgarlik nazarda tutilgan. Ko'rinib turibdiki, mazkur modda bilan jinoiy javobgarlikka tortish uchun boshqa havolaki normalar, qonunchilik hujjatlariga murojaat qilishimiz kerak bo'ladi. Ya'ni, mazkur modda dispozitsiyasida qayd etilgan "belgilangan tartib" qanday ekanligiga aniqlik kiritish muhim ahamiyat kasb etadi. "O'zbekiston Respublikasining davlat chegarasi to'g'risida"gi Qonunning 3- moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi (bundan buyon matnda Davlat chegarasi deb yuritiladi) – O'zbekiston Respublikasi hududi doirasini (quruqlikda, suvda, yer ostida, havo bo'shlig'ida) belgilovchi chiziqdan va bu chiziq bo'ylab o'tuvchi vertikal sathdan iborat. Jinoyat kodeksining 223-moddasida nazarda tutilgan jinoyat O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi chizig'i kesib o'tilgan paytdan boshlab, Davlat chegarasi orqali o'tkazish punktlarida esa - chegara nazoratidan o'tilgan paytdan boshlab tugallangan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 223-moddasida qonunga xilof ravishda chet elga chiqish yoki O'zbekiston Respublikasiga kirish jinoyati uchun jazo choralari belgilab qo'yilgan.

Jumladan, Belgilangan tartibni buzib chet elga chiqish yoki O'zbekiston Respublikasiga kirish yoxud chegaradan o'tish — bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravaridan to'rt yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O‘sha harakatlar:

a) chegarani yorib o‘tish yo‘li bilan;

b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;

v) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan;

g) chet elga chiqishi uchun maxsus kelishuv talab qilinadigan mansabdor shaxs tomonidan;

d) O‘zbekiston Respublikasiga kirish huquqi belgilangan tartibda cheklangan shaxs tomonidan sodir etilgan bo‘lsa.

besh yildan o‘n yilgacha muddatga ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida nazarda tutilgan siyosiy boshpana huquqidan foydalanish uchun kirish hujjatlarini tegishli darajada rasmiylashtirmasdan O‘zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar javobgarlikdan ozod qilinadilar. Davlat chegarasi davlat suvereniteti amal qiladigan hudud doirasini belgilaydi. O‘zbekiston Respublikasiga kirish, chiqish va davlat chegaralaridan o‘tish bilan bog‘liq munosabatlarni jinoyat-huquqiy qo‘riqlashdan maqsad fuqarolarning ko‘chib yurish erkinligi bilan bog‘liq konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishlarini tartibga solish va yetarli sharoitlar yaratishdan iborat. Shu bilan birga, qonun chiqaruvchi davlat va jamiyat suvereniteti hamda xavfsizligini ta‘minlash uchun respublikadan chiqish va unga kirish, davlat chegaralaridan o‘tish tartibini belgilab bergan. Shundan kelib chiqib, davlat chegarasiga tajovuz qilish – bu, avvalo, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining bir me‘yordagi tartibiga tajovuz qilish deb topiladi. Jinoyatning ijtimoiy xavfliligi shu bilan belgilanadiki, u qonun hujjatlari bilan o‘rnatilgan davlat chegarasi rejimini buzishga qaratiladi, natijada davlat chegarasini o‘rnatishdan belgilangan maqsadlarga tahdid yuzaga keladi. Bu esa, o‘z navbatida, ham davlat, ham jamiyat, ham fuqarolar manfaatlariga jiddiy zarar yetkazadi. M. H. Rustambayevning ta‘kidlashicha, “davlat chegarasi davlat suvereniteti amal qiladigan hudud doirasini belgilaydi”. Davlat chegaralari muayyan davlatning hududlari nihoyasini aniq belgilab beradi. Davlat chegaralari daxlsiz va ularning buzilishi davlat suverenitetining buzilishi hisoblanadi⁴. Har bir davlat o‘z chegaralari xavfsizligi va buzilmasligini ta‘minlash bo‘yicha choralar ko‘rish huquqiga ega. Davlat chegarasida qonun orqali davlat tomonidan o‘rnatiluvchi yoki chegaradosh davlat bilan kelishgan holda o‘rnatiluvchi maxsus chegara tartibi mavjud. Qo‘shni davlatlar bilan chegaralar shartnoma va qonun asosida belgilanadi. O‘tish joyiga ko‘ra chegaralar quruqlik, suv (dengiz, daryo, ko‘l), havo va suv osti chegaralariga bo‘linadi. O‘zbekiston Respublikasi Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston bilan quruqlikda, Afg‘oniston bilan suvda (Amudaryo orqali) chegaradosh. Demak, davlat chegaralari davlatning quruqlikdagi va suv hududidagi, havo kengliklaridagi va yer ostidagi suverenitetining chegarasini belgilaydi. Davlat chegaralari quruqlikdagi, daryo va ko‘llardagi hamda dengizdagi chegaralarga bo‘linadi. Quruqlikdagi chegaralar deganda, joy relyefidagi o‘ziga xos nuqtalar (masalan, tog‘ cho‘qqilari) yoki jo‘g‘rofiy koordinatalarning muayyan nuqtalari orqali, shuningdek, parallellar va meridianlar orqali o‘tadigan chiziqlar tushuniladi. Daryodagi davlat chegaralari daryolar bo‘yicha o‘tadi, bunda agar xalqaro shartnomalarda boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, ko‘pincha kema qatnaydigan daryolardan – asosiy farvaterning o‘rtasidan yoki daryoning talvegasidan (eng chuqur joylari chizig‘idan), kemalar qatnamaydigan daryolar (soylar)da esa, ularning o‘rtasi yoki daryoning asosiy irmog‘i o‘rtasidan o‘tuvchi chiziq chegara hisoblanadi. Ko‘llarda va boshqa suv havzalarda davlat chegaralari chegaralarning ko‘l yoki boshqa suv havzasi qirg‘oqlariga chiqadigan joylarini tutashtiruvchi to‘g‘ri chiziq orqali o‘tadi. Ba‘zan, agarda ko‘l cho‘ziq

shaklga ega bo'lib, qarama-qarshi qirg'oqlari qo'shni davlatlarga tegishli bo'lsa, bu chegara mediana bo'yicha o'tkazilishi mumkin.

Shuningdek, Davlat chegarasini buzuvchilar quyidagilardan iborat: o'tkazish punktlaridan tashqarida Davlat chegarasini kesib o'tgan yoki kesib o'tishga urinayotgan yoxud o'tkazish punktlarida Davlat chegarasini kesib o'tish tartibini buzgan holda, Davlat chegarasini kesib o'tgan yoki kesib o'tishga urinayotgan shaxslar; ichki suvlarga, shuningdek chegara daryolariga, ko'llariga va boshqa suv havzalariga Davlat chegarasini kesib o'tishning belgilangan tartibini buzgan holda kirgan chet el kemalari va harbiy kemalari; Davlat chegarasini samoviy hududda kesib o'tish tartibini buzgan holda Davlat chegarasini kesib o'tgan havo kemalari va boshqa uchuvchi apparatlar. Davlat chegarasini o'tkazish punktlaridan tashqarida har qanday texnik yoki boshqa vositalar bilan kesib o'tish ham Davlat chegarasini buzish hisoblanadi. Biroq, bugungi kunda dunyodagi mavjud qaltis vaziyat, geosiyosiy kurashlar va to'qnashuvlar zamonida davlat chegarasi xavfsizligini ta'minlash har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shu o'rinda aytish joizki, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining chet elga borishlarini rasmiylashtirish tartibi shulardan iborat:

1. Chet elga bormoqchi bo'lgan fuqarolar, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq ularga kirish uchun kirish vizalarini rasmiylashtirish talab etilmaydigan xorijiy davlatlar bundan mustasno, pasportini, belgilangan namunadagi anketa-arizani, davlat boji to'langanligi to'g'risidagi kvitansiyani, 35 x 45 mm o'lchamli 4 ta fotosuratni, harbiy guvohnomani (harbiy guvohnoma mavjud bo'lmagan taqdirda chaqiruv yoshidagi shaxslar uchun mudofaa ishlari bo'yicha bo'limning belgilangan namunadagi ma'lumotnomasini) taqdim etgan holda doimiy ro'yxatda turgan joydagi kirish-chiqish va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'linmalariga (harbiy xizmatchilar uchun harbiy qism (muassasa) joylashgan joy bo'yicha) murojaat qiladilar.

2. Kirish-chiqish va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'linmalari fuqaroning murojaatini 15 ish kuni mobaynida ko'rib chiqadi va chet elga chiqish huquqiga cheklovlar uchun asos bo'lmagan taqdirda uning pasportiga stiker yopishtiradi.

Zarur tarzda rasmiylashtirilgan hujjatlar kirish-chiqish va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'linmalariga berilgan kun murojaat qilingan sana deb hisoblanadi.

Amal qiladigan stiker haqiqiy bo'lmagan pasportdan yangi pasportga ko'chirilgan hollarda, ushbu stikerni rasmiylashtirish muddati 7 ish kundan oshmasligi kerak.

Chet elga xizmat safariga borayotgan fuqarolarga, ular ishlaydigan tashkilotlarning mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, chet elga chiqish huquqini cheklashlar uchun asos bo'lmagan taqdirda, stikerni rasmiylashtirish uchun hujjatlarni ko'rib chiqish muddati 10 ish kundan oshmasligi kerak.

O'zbekiston Respublikasidan tashqariga chiqishni talab qiladigan shoshilinch davolanish zaruriyatini, og'ir kasallik holatlarini yoki yaqin qarindoshi vafot etganligini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lganda fuqaroga va unga hamrohlik qiluvchi shaxslarga stikerni rasmiylashtirish muddati, chet elga chiqish huquqini cheklash uchun asos bo'lmagan taqdirda, 5 ish kundan oshmasligi kerak.

Chet elda doimiy yashash uchun chiqish hujjatlarini rasmiylashtirishda fuqarolarning doimiy ro'yxatda turgan joylaridagi kirish-chiqish va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'linmalari arizachilarning murojaatini 15 ish kuni mobaynida ko'rib chiqadi va fuqaroning chet elga

chiqishiga to'sqinlik qiluvchi holatlar bo'lmagan taqdirda, uning pasportiga doimiy yashash uchun stikerni yopishtiradi. Qo'shimcha tekshirishlar o'tkazish zarur bo'lganda hujjatlarni ko'rib chiqish muddati 30 kungacha uzaytirilishi mumkin.

Doimiy yashash uchun chet elga chiqishda fuqarolar O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashaydigan o'z ota-onasining va turmush o'rtog'ining (birgalikda chiqish holatlari bundan mustasno), shuningdek agar birgalikdagi nikohdan bolalar bo'lsa, O'zbekiston Respublikasida doimiy yashaydigan sobiq turmush o'rtog'ining notarial tasdiqlangan roziligini, ular vafot etgan yoki bedarak yo'qolgan hollarda esa - vafot etganlik to'g'risidagi guvohnomani yoki sudning shaxsni bedarak yo'qolgan deb e'tirof etish haqidagi qarorini (nusxalari olinib, asli qaytariladi) kirish-chiqish va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'linmalariga taqdim etadilar. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari xorijiy davlat hududiga kirish vizasini olish uchun tegishli xorijiy davlatlarning diplomatik vakolatxonalariga yoki konsullik muassasalariga murojaat qiladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – Elektron manba: <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. Уголовное право России. Часть Особенная: Учебник. / Под ред. Л.Л.Кругликова. – М., 2005. – С. 779. / Uголовное право Rossii Chast Osobennaya: Uchebник. / Pod red. L. L. Kruglikova. – М., 2005. – S. 779.
3. “O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi to'g'risida”gi Qonun – Elektron manba: <https://lex.uz/docs/-6605257>
4. Allanova A.A. Qonunga xilof ravishda chet elga chiqish yoki O'zbekiston Respublikasiga kirish uchun jinoiy javobgarlikning umumiy tavsifi. – T.: O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi axborotnomasi, № 1 (45) 2021.
5. Вазирлар Маҳкамасининг 1995 йил 6 январдаги 8-сон қарорига 1-ИЛОВА Ўзбекистон Республикаси фуқароларининг чет элга чиқиши ва Ўзбекистон Республикаси ҳудудига кириши тартиби